



## ADABIY-NUTQIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA METODLAR AHAMIYATLI JIHLARI

**Muallif:** Boboqulova Nafosat Qaxorovna <sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** Surxondaryo viloyati Angor tumanidagi 3-ixtisoslashtirilgan maktabning ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14504783>

### ANNOTATSIYA

Maqolada o’quvchilarning adabiy-nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda olib borilayotgan metodik ishlarning amalda qo’llanishi, dars mashg’ulotini olib borishda “Mening fikrim”, “Muloqot”, “FAKT”, “Ko’z aloqasi”, “Rolli o’yin”, “Rebus” kabi metodlardan dars mashg’ulotida unumli foydalanish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** Adabiy-nutqiy kompetensiya, metodik ishlar, ilm, fan, texnologiya, badiiy asar, hayotiy voqealar, asar g’oyasi, “Mening fikrim”, “Muloqot”, “FAKT”, “Ko’z aloqasi”, “Rolli o’yin”, “Rebus” metodlari.

Axborot texnologiyalar asrida bugungi kunda yoshlarimiz shiddat bilan o’rganib borayotgan innovatsion texnologiyalar bilan birga ularni badiiy adabiyot olamining rang-barang ekanligini uqtirib borish o’qituvchilar zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Shunday ekan bo’lajak o’qituvchilarning bilim, salohiyat egasi bo’lishi bilan bir qatorda ta’limga innovatsion yondashish, qolaversa ilg’or xorijiy tajribalarni o’rgangan holda ta’lim sifatini yanada oshirish muhim ahamiyatga molikdir. Bo’lajak o’qituvchining pedagogik faoliyatida o’quvchilar bilan olib boradigan muloqoti muhim ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu esa o’z navbatida o’quvchilar bilan ta’lim jarayonida yetarli darajada samaraga erishishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Oxirgi yillarda juda ko’plab davlatlarda, qolaversa bizning yurtimizda ham ta’lim standartlari kompetensiyaviylik tamoyili asosida tuzilishiga alohida ahamiyat berilmoqda. Ma’naviy hayotimizni yanada rivojlantirish maqsadida keyingi yillarda kitobxonlik madaniyatini oshirish bo’yicha turli ko’rik-tanlovlarni o’tkazilishi ham e’tiborga molikdir[1]. Bunday tanlovlar ko’plab iste’dodli yoshlarimizning bilim salohiyatlari, badiiy asarga bo’lgan qiziqishlari, teran fikrlaydigan iqtidor egalarini kashf etishda muhim rol o’ynaganligi quvonarli hol, albatta.

Bizga ma’lumki, pedagogik mahorat va kompetentlik har bir bo’lajak o’qituvchining o’z ustida ishlashi, ijodiy mehnati, iste’dodi va iqtidori evaziga mukammallashib, yoshlarning yanada salohiyatli va ilimli qila oladigan ijod mahsuli hisoblanadi. Pedagogik kompetentlikni rivojlantirish pedagogik va psixologik qonuniyatlarga tayangan holda turli shakl va metodlar, maxsus didaktik tamoyillarni qo’llash asosida tashkil etadi. Kompetensiyaviy ta’limga asoslangan standartlarni tahlil

qilishdan oldin kompetensiyaviy ta'limning mohiyatini aniqlab olish zarurdir. Pedagogik terminlar lug'atida "kompetensiya" so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: "ma'lum bir vazifani adekvat tarzda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmui hamda tajriba"[4]. Misol tariqasida Buyuk Britaniya o'rta ta'lim maktablarning adabiyot fani standartlarini kuzatib chiqsak. "O'quvchi asar syujeti qurilishining asar mazmuniga qanday ta'sir qilinishining asar mazmuniga qanday ta'sir qilishini tahlil qila oladi" kompetensiyasi quyidagi kompetensiyalarga bo'lingan[1]:

-syujet elementlarini topib, ularning ahamiyatini ko'rsatib bera oladi;

-asardagi ayrim epizodlarning asar mazmuni uchun ahamiyatini izohlab bera oladi;

-syujetning tarkibiy elementlarini aniqlab, ularning ahamiyatini izohlay oladi.

"Asarni o'z hayoti bilan, boshqa asar(lar) bilan va atrofdagi olam bilan bog'lay oladi" kompetensiyasi quyidagicha tarkibiy qismlarga bo'linganligi e'tiborga molikdir[2]:

-asarda aks etgan inson xarakterini to'liq tahlil qilib asoslab bera oladi;

-kitobxon shaxsi matnni tushunish va tahlil qilishga qay darajada ta'sir qilishini izohlab bera oladi. Ko'rinib turibdiki, bunday badiiy asar tahlilini yuqori saviyadagi kompetentlikka erishilganini e'tirof etishimiz darkor.

Rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimini kuzatar ekanmiz, aynan adabiyotga oid hujjatlarning barchasida o'quvchilarning badiiy asarni tahlil qilishidagi bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga oid barcha chora-tadbirlari mustaqil fikrlashda, asarni tahlil qilish jarayonida nafaqat o'zining shaxsiy hayoti, balki ijtimoiy hayot tarziga bog'lagan holatda tahlil qilishi muhim ahamiyat kasb etishini anglab yetdik. Yana ham asosiy qulay tomoni adabiyotni o'rganishda kompetensiyalarni o'rganish uchun adabiyotlar ro'yxati shakllantirilganligini guvohi bo'ldik.

O'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda interfaol metodlarning bir nechta turlaridan foydalanish dars samaradorligini yanada oshishiga xizmat qiladi. Masalan, "Mening fikrim" metodi o'qituvchi tomonidan muammoli savol o'quvchilarga o'qib eshittiriladi. O'quvchilarning fikr va mulohazalari umumiy tarzda tinglanadi va shu ma'lumotlar yig'ilgandan so'ng ma'lum bir yechimga kelinadi. Bu usulni qo'llash o'quvchining nafaqat erkin fikrlash muhitini yaratadi, balki hayotda ham mustaqil fikrini dadil ayta olishini ham ta'minlaydi. Bu metodning og'zaki va yozma shakli mavjud bo'lib, har ikkalasi ham mustaqil fikrlash orqali o'quvchilarning so'z boyligi yanada rivojlanadi[2;42]. Og'zaki usulda beriladigan javob aniq, qisqa va lo'nda ifodalansa, yozma javob berilganda esa qog'ozga imloviy xatolarsiz aks ettirishlari kerak.

"Muloqot" metodi ham o'quvchilarning erkin fikrlash jarayonida bahslashish, og'zaki muloqot madaniyatini rivojlantirishni ta'minlaydi. Bu metodning afzalligi shundaki, kichik guruhlarga bo'lingan tarzda olib boriladi. Metodni qo'llashdan maqsad shuki, tanlangan mavzu asosida o'quvchilar mustaqil fikrlari orqali so'z boyligini aniqlash, mavzuga bo'lgan munosabatini dalillar orqali asoslab berishini rivojlantirish, qolaversa, muloqotga kirishish va boshqalar bilan muloqotga kirisha olish madaniyatini o'rgatishdan iboratdir[1].

Asqad Muxtorning "Chinor" romanini o'rganishda "FAKT" texnologiyasidan unumli foydalangan holda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir[2]. Bu texnologiyadan foydalanishda o'qituvchi har bir o'quvchiga FAKT texnologiyasining 4 bosqich yozilgan qog'oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to'ldirishni ta'kidlaydi.

F – asarda fakt nima edi?, A – faktingiz bayoniga sabab ko'rsating?, K – ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring?, T – bu harakatlar to'g'rimi, noto'g'rimi?.

Yakka tartibdagi ish tugagach, o'quvchilar kichik guruhlariga ajratiladi va o'qituvchi kichik guruhlariga FAKT texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'ozlarni tarqatadi[3].

O'qituvchi kichik guruhlarining yozgan fikrlarini jamoa o'rtasida himoya qilishlarini so'raydi. Mashg'ulot o'qituvchi tomonidan muammo bo'yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi. Masalan. "Chinor-chinakam badiiy asar" mavzusi bo'yicha fikrlaringizni bayon qiling.

F – "Chinor" romani Asqad Muxtorga katta shuhrat keltirgan asarlardan biridir.

A – "Chinor" romanida yaxshilik, ezgulik, mehr ko'rsatish, taqdiralar zanjiri, shafqatsiz va chigal hayot muammolari o'z ifodasini topganligi bois asar umrboqiydir.

K – Romanga jalb etilgan barcha katta-kichik insoniy taqdiralar asar markazida turuvchi obraz 93 yoshli Ochil bobo taqdiriga borib bog'lanadi, romanda uzoq yurtga tarqab ketgan uzoq-yaqin qarindoshlaridan xabar olgani otlangan Ochil boboga qo'shilib o'quvchi ham olis safarga chiqadi va hokazo.

T – qaysiki asar yaxshilikni, mehr-muhabbatni, insonlarga xos bo'lgan ijobiy xarakterni, milliy qadriyatlarni, ezgulikni ulug'lar ekan, bu asarning umri boqiydir. Shu kabi interfaol metodlar adabiyot darslarida qo'llanilganida darsda nafaqat faol o'quvchi, balki, darsda passiv ishtirok etadigan o'quvchi bir og'iz bo'lsa ham o'z fikrini bayon etadi[4].

"Ko'z aloqasi" metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan o'quvchilar tomonidan o'z fikr mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir. "ko'z aloqasi" metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir o'quvchining bir-biri bilan "ko'z aloqasi"ni o'rnatib turishiga yordam beradi.

"Rolli o'yin" metodining tuzilmasi. "Rolli o'yin" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. O'qituvchi mavzu bo'yicha o'yinning maqsad va natijalarini belgilaydi.
2. O'yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O'yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. O'quvchilar o'z rollarini ijro etadilar. Boshqa o'quvchilar ularni kuzatib turadilar.
5. O'yin yakunida o'quvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi[2].

"Rebus" metodida o'quvchilar Robindranath Thakur asarlarini rasmlar orqali topishlari kerak. O'quvchilar zukkoligini, topqirligini oshirishda yordam beruvchi metod hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz lozimki, o'quvchilarning bilim va salohiyatini oshirish uchun turli metodlardan foydalangan holda dars mashg'ulotlarini o'tish ularning fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga katta zamin yaratadi. Bugungi iste'dodli va iqtidorli yoshlarimizning badiiy asarni o'qish jarayonida uning har bir sahifasini shunchaki bir qiziqish uchun o'qimasliklarini, balki tahlil qilish jarayonida ijtimoiy jamiyatdagi o'zni va roli, qahramonlar hayoti jamiyatda qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr-mulohaza yuritishlari lozimdir. Bunday mas'uliyat albatta o'qituvchilar zimmasiga tushishi ularning o'z ustida ishlashlarini ko'rsatadi. O'z navbatida aytishimiz joizki, bugungi kunda o'qituvchilarlar ilg'or zamonaviy pedagogik

texnologiyalarni mahorat bilan qo'llab o'quvchilarning bilim va salohiyatini yanada rivojlantirib bormoqdalar. Zero, kelajagimiz tayanchi bo'lgan unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi asosida, qolaversa, o'zimizning milliy dastur ta'lim tizimi bilan chambarchasligida yanada chuqur bilim berilmoqda. Bu sa'y-harakatlar badiiy adabiyotni yanada yuqori cho'qqilarga ko'tarilishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, adabiyotshunos olimlarimiz tomonidan ishlab chiqilayotgan qo'llanmalar, ilmiy kitoblarning barchasi badiiy adabiyotning tahlilini o'rganish jarayonida o'quvchilar bilan ishlashda yuqori natijalarni qo'lga kiritishda asosiy manba hisoblanib kelmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevralda "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF – 5349-son qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 20.02.2018-y. 06/18/ 5349/0792-son.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF – 5812-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari milliy bazasi.

Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o'qitish metodikasi: an'anaviylikdan zamonaviylikka. Toshkent – 2020. 160 bet.

To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. T: Yangi asr avlodi. 2010. 157 bet.

